



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.



2-SHO'BA. RAQAMLI IQTISODIYOT VA TURIZM

JIZZAX VILOYATI TURIZM XIZMATLARI BOZORI VA INFRATUZILMA RIVOJINI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI

Fayzullayeva Sojida Farxodovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu ishda turizm xizmatlari bozori va infratuzilma rivojini boshqarishning samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish jarayonida iqtisodiy, tashkiliy va institutsional omillarning o'ri, infratuzilmaning turizm tarmoqlari bilan o'zaro bog'liqligi hamda investitsiya siyosatining ta'siri yoritilgan. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash va raqamli texnologiyalardan foydalanish bozorni kengaytirishning asosiy vositalari sifatida ko'rib chiqiladi. Xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm xizmatlari bozori, infratuzilma rivoji, boshqaruv usullari, barqaror rivojlanish, innovatsion yondashuvlar, investitsiya siyosati, davlat-xususiy sheriklik, raqamli texnologiyalar, raqobatbardoshlik, hududiy iqtisodiy o'sish, xalqaro tajriba, modernizatsiya, turizm iqtisodiyoti, xizmatlar sektori, strategik rejalashtirish, marketing mexanizmlari, samaradorlik ko'rsatkichlari.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro aloqalaridir. Tovarlar va xizmatlar bozorining ko'rinishlari esa tovarlar bilan xizmatlar bozori tarkibidan iborat bo'lsa, sotuvchilar, xizmatlarni amalga oshiruvchilar va xaridorlar ham ushbu ikkala bozorga xosdir. Bozordagi oldi-sotdi munosabatlari tovarlar, mahsulotlar va xizmatlarning yig'indisidan tashkil topib, bozor subyektlari o'rtasida ushbu munosabatlari amalga oshirilishi bozorining erkin faoliyat ko'rsatishi va samarali rivojlanishi uchun o'ta zarur bo'ladi.

Ma'lumki, iqtisodiyot sohasi va tijorat ilmida[1] bozor- kishilarning oldi-sotdi munosabatlari hisoblanadi. Bunga muvofiq, faqat oldi-sotdi munosabatlari shakllansagina tovarlar va xizmatlar bozori faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Bozorda tovarlar va xizmatlar munosabatlari samaradorligini oshirish: tovarlar va xizmatlar bozorida bozor hajmi muhim ko'rsatkich bo'lib, hisob-kitobini amalga oshirishda keng qo'llash, bozor subyektlari hisoblangan sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi faol ijtimoiy sherikchilik munosabatlari, iqtisodiy oldi-sotdi munosabatlarini erkin amalga oshirish va iste'molchi talabini qondirish; bevosita bozor aloqasi, bilvosita ya'ni xaridor bilan aloqalarni o'rnatishda vositachilarning faolligi,

har qanday ko‘rinishdagi monopoliyaga barham berish, sog‘lom raqobat, sifatli tovarlar va xizmatlar bilan to‘ldirish.

Turizm sohasiga xizmat qiluvchi biznes subyektlari soni respublika bo‘yicha 2020 yildan boshlab keskin o‘zgarishni qayd etib kelmoqda (1-jadval).


1-jadval

O‘zbekistondagi turistik kompaniyalarning viloyatlar bo‘yicha taqsimoti

T/r	Hududlar	Soni	Foiz
1.	Toshkent shahri	634	66,2
2.	Toshkent viloyati	19	2,0
3.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	15	1,6
4.	Xorazm viloyati	29	3,0
5.	Surxondaryo viloyati	14	1,5
6.	Qashqadaryo viloyati	12	1,3
7.	Navoiy viloyati	4	0,4
8.	Buxoro viloyati	59	6,2
9.	Samarqand viloyati	119	12,4
10.	Sirdaryo viloyati	4	0,4
11.	Jizzax viloyati	5	0,5
12.	Andijon viloyati	19	2,0
13.	Farg‘ona viloyati	17	1,8
14.	Namangan viloyati	7	0,7
	Jami	957	

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, turizmga xizmat qiluvchi biznes subyektlarining soni ortishi mamlakatimizda yangi turistik biznes subyektlarining shakllanishiga sharoit yaratilmoqda. Viloyatlar misolida ko‘rinib turibdiki, jami turistik kompaniyalarning asosiy qismi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Keyingi o‘rinlarda Samarqand viloyati 12,4 foiz, Buxoro viloyati 6,2 foiz egallangan. Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlari esa eng quyi o‘rinlarni egallagan. Bu viloyatlar qatori Jizzax viloyatida ham qo‘shimcha tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlarni belgilash talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan turizm xizmatlari bozori va infratuzilmasini o‘rganish tahlil qilish asosida tegishli tavsiyalar ilgari suriladi. Ma’lumki, turizm infratuzilmasi iqtisodiy mohiyati jihatdan turistlar uchun normal faoliyat ko‘rsatishi, turistik turar joy hisoblangan resurslarga qulay yetib borishi, ularga xizmat ko‘rsatuvchi barcha bino, inshootlar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ishlab chiqaruvchi, maishiy energetik va boshqa turizm industriyasi ob’ektlarini jumladan turistlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, turmahsulotlarni sotish, ishlab chiqarish, sifatli reklama, ilmiy loyihalash va h.k. kabi tashkilotlarni o‘z ichiga qamrab oladi. (1-rasm)



1-rasm. Turizm infratuzilmasining tuzilishi

Odatda turistik xizmat bozori subyektlari ikki guruhga bo‘linadi:

-turistik xizmat ko‘rsatuvchilar – turoperator va turagentlar, iste’mol qiladigan jismoniy va yuridik shaxslar – turistlarning o‘zlari. Keyingi yillarda mamlakatimizda turizm infratuzilmasi rivojlanib, turistlar uchun mo‘ljallangan obyektlarning har tomonlama qulay va sifatli xizmat ko‘rsatish, turistlar hayoti va mol-mulki xavfsizligi, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilganligi ta‘minlandi.

So‘nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, turistlarga yetarli sharoitlar yaratish, turizm infratuzilmasini shakllantirish hamda turistlarning xavfsizligini ta‘minlash borasida belgilangan chora-tadbirlar huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasini ishlab chiqishi va ijrosini ta‘minlashi zarur. Shu asosda 2025 yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish lozim”[2], sohadagi yo‘nalish va marrani ko‘rsatib berdi.

Turizm infratuzilmasi shakl va turlari quyidagicha guruhlanadi[3] - tunash majmyalari (xotel, motel, kemping), suv va oziq-ovqat ta‘minoti, kanalizatsiya, telekommunikatsiya, sog‘liqni saqlash, turistlar xavfsizligi, barcha turdagi transportlar, atrof-muhitni, tarixiy yodgorliklarni turli yong‘in, tabiiy ofatlardan himoya qiladigan tashkilotlar, madaniy hordiq chiqarish myassasalari (park, yashil bog‘lar, o‘rmonlar, botanika bog‘lari, hayvonot bog‘lari, kutubxona, muzey, teatr, xususiy va davlatga tegishli madaniy markazlar), piyodalar va velosipedchilar uchun mo‘ljallangan yo‘llar, o‘rindiqlar, chiqindi va axlat tashlash joylari, turizm maktablari va kollejlari, oliy o‘quv yurtlari yoki fakultetlari.

Mamlakatimizning boshqa hududlari kabi Jizzax viloyatida ham turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jizzax tarixi[4] qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Bugungi kunda viloyatda hali sir-u-sanoati to'liq ochilmagan, tarixiy tosh bitiklar, qoyatosh rasmlari, qadimiy konlari borki, ular ilmiy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

Viloyat iqtisodiyotimizda muhim o'rin tutadigan mintaqalardan biri bo'lib, reliefi pasttekislik, cho'l va dashtlar, qirlar va tog'li hududlardan, tabiiy ko'llardan iborat. Tog' yon bag'irlaridagi adirlarda lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik rivojlanganligi, rang-barang tabiiy manzara, noyob va ekzotik relief, mo'tadil iqlim mavjudligi turistlarni o'ziga jalb qiladi.

Iqtisodiyotning turistik sektori rivojlanishining strategik muhim yo'nalishi, barcha innovatsion yechimlar turidan foydalanishni o'z ichiga oladi: biznesni yuritishning yangi usullaridan keng foydalanish; innnovatsion texnologiyalarni, materiallar, xizmatlarni qo'llash; yangi mahsulotlar yaratish; yangi bozorlarni o'zlashtirish. Asosan bular, internet texnologiyalarga tayangan holda yangi marshrutlarni ochish, chiptalarni xarid qilish, mehmonxonada joy bronlash va h.k., axborot kommunikatsiya texnologiyasida amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Boshqa bir strategik muhim resurs ham e'tibordan chetta qolmasligi kerak, mamlakatimiz tur mahsuloti raqobatbardoshligini ichki va tashqi bozorda oshirish bilan, iqtisodiyotning turistik sektori xizmatlari sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, buning uchun xalqaro kasbiy standartlar talabiga mos keluvchi xodimlarni tayyorlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov S., Abdullaev A., Sotvoldiev A. Iqtisodiyot ilmi asoslari. – T.: Moliya, 2002. – 29 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Halq so'zi". 2018 yil 29 dekabr, № 271-272 (7229-7230)
3. Alimov A.O., F.S.Qutlimurotov, E.T.Rabbimov. Turizm infratuzilmasi. Toshkent, 2011 y. 6-7 b.
4. Saliev E.A. Yaratuvchanlik cho'qqilarini zabt etayotgan voha. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2018. №1-2, 6- 7 b.

IQTISODIY O'SISH DARAJASINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Tirkashev Ulug'bek Marif o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy o'sish darajasini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi tahlil qilinadi. Xususan, yalpi ichki mahsulot (YAIM), aholi jon boshiga YAIM, ishsizlik darajasi va inflyatsiya kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning O'zbekiston iqtisodiyoti misolida o'zgarishlari ko'rib chiqiladi.